

**“TASDIQLAYMAN”**

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ**

**Ishlarni boshqarish direksiyasi**

**bosh muhandisi**

**B.M. Madaminov**

**2026-yil 29-aprel**

**“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ boshqaruv raisi o‘rinbosari J.Z.Yusupov tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tizimida 2026-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ijrosini ta‘minlash maqsadida Ishlarni boshqarish direksiyasi xizmat xodimlari o‘rtasida “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” va “Ommaviy madaniyat – global xavf va xatarlar” mavzularida o‘tkazilgan tadbir.**

### **BAYONI**

**Raislik qiluvchi:** Ishlarni boshqarish direksiyasi bosh muhandisi B.M. Madaminov

**Qatnashganlar:** Kiberxavfsizlik boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Sodiqov Zohid Sobitovich hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Yo‘ldoshev Javlonbek va direksiyada faoliyat yuritayotgan 50 nafardan ortiq temiryo‘lchi hodimlar.

### **Kun tartibi:**

**1. “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi” va “Ommaviy madaniyat – global xavf va xatarlar”**


Kun tartibidagi masala yuzasidan Ishlarni boshqarish direksiyasi B.M. Madaminov mavzu doirasida qisqacha to‘xtalib, tadbir qatnashchilari va taklif qilinganlarni tanishtirib o‘tdi.

Shundan so‘ng, so‘z Kiberxavfsizlik boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Sodiqov Zohid Sobitovichga berildi.

Yig'ilishni ochib bergan mas'ullar bugungi kunda korrupsiya va kibertahdidlar jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan global muammolardan biri ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Yig'ilish davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i J.A. Yuldashev so'zga chiqib, korrupsiyani bartaraf etish yo'llari va bunda yoshlar dunyoqarashi va ongini to'g'ri yo'naltirish, korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida gapirib o'tdi. Shu bilan birga Kiberhavfsizlik boshqarmasi mutaxassislari tomonidan kibertahdidlar turi va ko'lami kengayib borayotganligi, fishing, zararli dasturlar, hakerlik hujumlari, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi holatlar ko'payganligi, bu esa nafaqat alohida fuqarolar, balki davlat tashkilotlari va xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotganligi borasida slayd ko'rinishida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek yig'ilishda "ommaviy madaniyat" shunchaki ko'ngilochar vosita emas, balki chegara bilmas mafkuraviy ta'sir quroliga aylanib ulgurdi. U o'zining jozibador niqobi ostida milliy qadriyatlar, asriy an'analar va ma'naviy ildizlarni yemirish havfini tug'dirmoqda. "Ommaviy ma'daniyat"ning eng katta xavfi – bu bir xillashtirish (standartlashtirish)dir. U insonlarni, ayniqsa yoshlarni, o'zining milliy o'zligida uzib, ularni faqat iste'molchilik psixologiyasi bilan yashaydigan "omma"ga aylantirishni ko'zlaydi. Biz "ommaviy madaniyat"ga qarshi temir devorlar bilan to'siq qo'ya olmaymiz, biroq unga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirishimiz shart. Buning yagona yo'li – yoshlarimiz qalbida milliy g'urur, boy tariximizga hurmat va mustaqil fikrlash qobiliyatini kuchaytirishdir. Zero o'zligini anglagan xalq hech qachon begona va yot g'oyalar girdobiga tushib qolmaydi.

**Bayonnoma yurituvchi**



**O.X. Xaydaraliyev**

